



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 1(4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;  
Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI .....	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР .....	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI .....	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ .....	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI .....	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI .....	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР .....	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ .....	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR .....	66-71

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ .....	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI .....	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI .....	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ .....	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ .....	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ .....	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI .....	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI .....	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ .....	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI .....	158-170

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома .....	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ .....	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ .....	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI .....	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK .....	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida) .....	205-214

*Shukurov Orif Jumaboyevich*

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari ..... 215-219

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys ..... 220-227

*Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи*

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ ..... 228-232

*Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna*

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI ..... 233-237

*Uliqova Mavludaxon*

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI ..... 238-243

*Rahmonov Asror ibni Nusrat*

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI ..... 244-252

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI .... 253-258

*Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR .... 259-265

*Vokhidova Tamanno Saidjonovna*

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION ..... 266-271

*Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna*

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI ..... 272-277

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI ..... 278-286

*Mirzaev Shukhrat Shavkatovich*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ ..... 287-293

*Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li*

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL ..... 294-301

*Islombek Abdikhakimov*

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES ..... 302-309

*Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi*

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ ..... 310-315

*Jiyenbayev Baxadir Ospanovich*

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA ..... 316-322

*Alishaev Sobir Tursunboevich*

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ .....	330-339
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ .....	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI .....	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI .....	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI .....	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА .....	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH .....	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI .....	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI .....	398-403

**Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna**  
Xalqaro innavatsion universitet o'qituvchisi

### **AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aqida ilmining bahsli masalalaridan biri bo'lgan valiylarning karomati haq ekanligi, Alloh o'zi sevgan taqvodor do'stlari (bandalari)ga izzat-ikrom sifatida ehtirom etishi, inoyati karomat tushunchasi badiiy jihatdan tahlil qilingan. Karomat egasi bo'lish valiylikning eng asosiy va dastlabki belgisi ekanligi, valiy obrazining badiiy adabiyotdagi o'rni va xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Valoyat, karomat, valiy, aqoid, mo'jiza, karomati jibbiliy, karomati kasbiy.

---

**Ortikova Mavluda Nurmagomedovna**  
Lecturer at the International Innovative University

### **THE CONCEPT OF THE MIRACLE IN THE RELIGIOUS DOCTRINE AND ITS INTERPRETATION IN FICTION**

**Abstract.** This article artistically analyzes one of the controversial issues of the doctrine -the truth of the miracle(gift), Allah's reverence for pious friends (slaves) whom he loves, the concept of the miracle of grace. It reveals the possession of a gift-the most important and earliest sign of prophecy, about the role and features of the image of prophecy in fiction.

**Keywords:** prophecy, gift, prophet, creed, miracle, gifted prophecy, professional gift.

---

**Ортыкова Мавлюда Нурмагомедовна**  
Преподаватель Международного инновационного университета

### **ПОНЯТИЕ “ДАР” В ВЕРОУЧЕНИИ И ЕГО ТОЛКОВАНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

**Аннотация.** В данной статье художественно анализируется один из спорных вопросов вероучения-истинность дива, почитание Аллахом благочестивых друзей (рабов), которых он любит, понятие дива благодати. Речь идёт об обладании даром-самый главный и самый ранний признак пророчества, о роли и особенностях образа пророчества в художественной литературе.

**Ключевые слова:** пророчество, дар, пророк, вероучение, чудо, дар пророчества, профессиональное  
способство.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N31>

**Mavzu dolzarbliji.** Valoyat tushunchasi tasavvuf adabiyotida, badiiy adabiyotda o'r ganilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Valoyat bu valiylikning namoyon bo'lishi, ya'ni ollohnning o'z sevgan bandasiga yuborgan ehsoni, karomat zohir bo'lishi deb aytildi. Shu ma'noda, valiylar obrazini tahlil qilishdan oldin aqida ilmida valiy inson va karomat tushunchasi qanday ta'riflanadi? Izohli lug'atda qanday? Istilohda qanday ma'noda qo'llanadi? Ushbu masalalarga izoh berish lozim. Islom aqidasi har bir musulmon kishi uchun

o'rganilishi va e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan masalalarni o'z ichiga olib, bu ilmni o'rganilishidan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri, diniy aqidalarni qati'y dalillar bilan isbotlash va bu aqidalarga bo'lgan shubhalarni aritish hisoblanadi. Aqoid ilmida ana shunday bahsli masalalardan biri valiylarning olloh tomonidan yuborilgan karomat sohibi bo'lishi aqidasidir. Bu borada valiylar va ularning sohibkaromat ekanliklarini o'rganib, yetarlicha isbotlab bera olgan va bu bilan aqida ilmiga o'z hissalarni qo'shgan ba'zi olimlarning izlanishlariga e'tibor qaratsak.

Bunday manbalarning avvalida Sa'duddin Taftazoniyning "Sharh al-Aqoid-an Nasafiya" asariga murojaat qilamiz. Asarda ushbu xususda shunday bayon qilinadi: "Valiylarning karomatlari haqdir. Bunda karomat uzoq masofani qisqa muddatda bosib o'tish, muhtoj paytda oziq-ovqat va kiyim-kechaklarning paydo bo'lishi, suv ustida yurish, havoda uchish, jonsiz va tilsiz narsalarning gapirishi, kelgan musibatni qaytarish, dushmanlarni daf qilish kabi narsalar valiylarda g'ayri oddiy yo'l bilan zohir bo'ladi" [1;57b] Asarda dastlab "Valiy" tushunchasiga ta'rif beriladi: "Valiy bu allohnini va uning sifatlarini mumkin bo'lgan darajada biluvchi, toatlarda doim qoim bo'lvchi, gunohlardan uzoq bo'lvchi, shahvatlar va lazzatlarda harom amal qilishdan saqlanuvchi bandadir" [1;57b] Valiylarning karomati haqida fikrlar badiiy adabiyot namunalarida ham o'z talqinlarini topgan. A. Navoiyning 1495-1496 yillarda yozilgan mill.avv VIII-XV asrning oxiriga qadar Osiyo, Afrikava Yevropa qit'alarida yashab o'tgan 770 ta avliyo ularning hayoti, faoliyati va karomatlarini kichik hikoyatlarda badiiy tasvirlar orqali ifodalangan "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Abu Zaar Tirmiziyni xojatini faqat allohdan so'ragan orif sifatida keltirilgan hikoyat quyidagicha: "Oriflarning biri debdurkim, biz bir-birimiz bilan suhbat tutib yuradigan bir jamoada edik. Har qaysimizga bir nima kerak bo'lib qolsa, Abu Zaar turib namoz o'qirdi. Tangri ul nimani o'sha zahoti yetkazardi". Usbu hikoyatdagi jarayon siz-u biz kabi insonlar uchun aql bovar qilmas hodisa. Ammo bu valiylarning oddiy insonlarda uchramaydigan eng oddiy karomati deyish mumkin. Chunki yuqorida aytiganidek, valiylar ollohning nazari va inoyatiga sazovor bo'lgan ollohning do'stleri ekan.

S.Taftazoniy fikrlariga ko'ra karomatlar haqiqatiga dalil, egasidan ko'p to'xtovsiz zohir bo'lishi va u yerdan uzoq bo'lganlar tomonidan uni inkor qilish mumkin bo'lmaslidir. Xususan, o'xshash bo'lgan ish va tafsilotlari bittadir, deydi. Asarda karomatni va uning juda aqlga sig'maydigan qismlarining ba'zi tafsilotlarini ochib beruvchi gapni keltirgan. Ya'ni, karomat aql bilan qabul qilinmaydigan holatligini aytadi. Shundan so'ng alloma "Uzoq masofani qisqa muddatda bosib o'tish" karomatini dalillash uchun Qur'oni karimda Maryam (r.a.) va Sohibi Sulaymon (a.s)dan karomat zohir bo'lganini keltiradi: "Sohibi Sulaymon (a.s.) bajargan ishi karomat kabitdir. U mashxur Osif ibn Barhiyodir. U Bilqis taxtini chekka dushman hududidagi uzoq masofadan keltirgan. Sharh daliliga Maryam (r.a.) misolida, Oli Imron surasi 37- oyatni keltiradi: "Zakariyo har gal (Maryamning) oldiga-masjidga kirganida, oldida rizq turganini ko'rар edi. U: "Ey, Maryam, bu narsalar senga qayoqdan keldi?" — deb so'rasa, (Maryam): "Bular Alloh huzuridan", — deb javob berar edi." "Suv ustida yurish" xususiyatini "Ko'plab avliyolar haqida naql qilingan", — deb izohlaydi. "Havoda uchish" jumlasini "Sahoba Jafar ibn Abu Tolib, Luqmon as-Saraxsiy va ulardan boshqalar haqida naql qilingan", — deb sharhlaydi. "Jonsiz va tilsiz narsalar gapirishi" haqida, "Jonsiz narsaning gapirishi, rivoyat qilingani kabi Salmon va Abu Dardolarda yog'och tovoq bo'lgan. U esa madh qilgan va uning tasbihini u ikkisi eshitganlar", deydi. "Tilsiz jonivor esa, "Ashob ul-Kahf itining gapirishi kabitdir" deb sharhlaydi. "Kelgan balolarni daf qilish va dushmanlardan yetadigan ofatlarga kifoya qilish" bunga esa Umar ibn Xattob (r.a.) haqidagi rivoyat misol bo'ladi. U Madina shahrida masjid minbarida edi. Uning qo'shini esa "Nahovand" jang maydonida bo'lgan. Boshqa joyda bo'la turib

qo'shini amirini tog'ning orqadagi dushman pistirmasidan ogohlantirib "Ey, Soriya, toqqa, toqqa" degan va uzoq masofadan soriya Umar (r.a.) gapini eshitgan", — deb, keltiradi. S.Taftazoniy yana sahoba Xolid ibn Valid (r.a.)ning zahar ichib, undan zaharlanmaganligi haqidagi rivoyatni keltiradi. Yuqoridagi dalillarni keltirib alloma valiylar va ularning sohibkaromat ekanliklari haqidagi fikrni asoslab beradi. Badiiy adabiyot namunalarida ham valiylarning karomati xuddi shunday karomatlar bilan dalillanadi. Valiylarning karomatini yo'q deb tan olmaydigan ba'zi oqim vakillariga bu ayni haqiqat ekanligini dalillash uchun Abu Muin Nasafiyning "Tabsiratul adilla" asaridagi aniq ma'lumotlarni ham ko'rishimiz mumkin. "Ahli haq ko'plab xabarlar, mustafiz hikoyalar vorid bo'lganligi sababli karomatning sobit ekaniga hukm qilishadi. Xabar va hikoyalardan biri – Sulaymon (alayhissalom)ning hamrohlari ko'z ochib yummashdan Bilqisning taxtini olib kelgani xabari; yana biri – Madinada minbarda o'tirgan Umar (r.a.) Nahovanddagi qo'shinni ko'rib: "Ey, soriya, toqqa, toqqa deganlari. Soriya esa salkam besh yuz farsah masofada turib bu ovozni eshitgani va toqqa chiqib, u yerdan dushmanga pistirmadan hujum qilgani. Bu esa g'alabaga sabab bo'lgani; Xolid ibn Valid (r.a.) zahar ichsa-da, zarar ko'rmaganligi; Umar (r.a.)ning Nil daryosi borasidagi xabarlari shular jumlasidandir. Tobein va solihlardan behisob karomatlar rivoyat qilingan (ko'rilgan). Ularni inkor qiluvchi kishi, umumiy ma'noda, ko'rinib turgan narsani rad qiluvchilar qatoriga kiradi. Mutazaliylar ularni inkor etishadi. Chunki bid'atlarining shumligi sabab karomatni man qilishadi. Imondan chiqishdan qo'rqib, ibodatlarda va gunoh-ma'siyatlardan tiyilishda qattiq jiddu-jahd qilishlariga qaramasdan, o'z mazhablarining botilligi, e'tiqodlarining fosidligiga karomatlarni man etishlari yetarli, boshqa dalil kerak emas. ularning: "Avliyolar qo'lida karomatning zohir bo'lishi anbiyo (alayhissalom)larning mo'jizalari botil bo'lishini keltirib chiqaradi", degan da'volari haqni botildan, to'g'rnini fasoddan ajratadigan mezon bo'lmish aqlga ko'ra ish tutmasdan, o'ylamasdan gapirish. Chunki tafakkur qilgan kishi valiyning har bir karomati (valiyning) nabiysi (alayhisallom)ning mo'jizasi ekanini biladi. Albatta, karomatning zohir bo'lishi bilan u kishining valiy ekan bilinadi. Uning valiy ekanai aqidasi haq ekaniga dalildir. Mo'jiza bilan karomat aralashib ketishi mumkin emas. Mo'jiza risolat (payg'ambarlik) da'vosi ortidan namoyon bo'ladi. Agar avliyo risolat da'vo qilsa, o'sha vaqtdayoq valoyatdan tushadi. Mo'jiza sohibi mo'jizasini yashirmaydi. Aksincha, uni oshkor qiladi. Karomat sohibi esa imkon qadar karomatini yashiradi ko'pincha unga suyanmaydi, ishonmaydi".

Ko'rindaniki, har ikkala asarda ham valiylarning karomati bor haqiqat. Berilgan ma'lumotlar, namunalar deyarli o'xshash. Aqoid ilmining yana bir yirik manbalaridan bo'lgan "Al Fiqh al-akbar" asarida ham shunga o'xshash ma'lumotlar beriladi: Payg'ambarlarning mo'jizalari, avliyolarning karomatlari haqdir. Ammo Allohnning dushmanlari – Iblis, Fir'avn, Dajjal kabilarda bo'lgan va bo'ladigan odatdan tashqari ishlarni mo'jiza ham, karomat ham deb atamaymiz. Bularni biz ularning hojatlarini chiqarish deb ataymiz. Chunki Alloh dushmanlarini dunyoda g'ururda, oxiratda azobda qolishi uchun hojatlarini ravo qiladi. Ular bu bilan mag'rurlanib, kufru tug'yonda haddan oshib ketadilar." Yuqoridagi fikrlarning ma'noviy davomi va mo'jiza bilan karomatning bir-biridan farqi, ularni aralash emasligini bayon etish uchun Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Aqoid darsligi" dan quyidagilarni keltiramiz: "Mo'jizalar payg'ambarlar uchun sobitdir va karomatlar avliyolar uchun haqdir. Ammo Alloh taoloning dushmanlari uchun bo'ladigan, masalan, Iblis, Fir'avn va Dajjal kabilardan sodir bo'lganligi va (bundan keyin) bo'lishligi xabarlarda rivoyat qilingan narsalarni mo'jiza ham, karomat ham demaymiz. Lekin o'sha narsalarni ular uchun qazoi-hojat deymiz. Chunki Alloh taolo dushmanlarining ham hojatlarini ularga istidroj va uqubat uchun ro'yobga chiqaradi. Ular bundan aldanib qoladilar va tug'yonu kufrda ziyyodalashaveradilar.

Bunday narsalarning barchasi joiz va mumkindir. Mo'jizalar payg'ambarlar uchun sobitdir va karomatlar avliyolar uchun haqdir. Mo'jiza – ismi foil bo'lib, lug'atda "ojiz qoldiruvchi" degan ma'noni bildiradi. Shariatimiz istilohida esa: "Payg'ambarlarning haqiqatdan ham Alloh taolo tomonidan yuborilgan elchilar ekanligiga dalil-hujjat sifatida ro'y beruvchi va boshqalarni ojiz qoldiruvchi ish-mo'jiza deyiladi." Alloh taolo o'zining yuborgan payg'ambarlariga ularning payg'ambarliklarini tasdiqlash uchun xilma-xil mo'jizalar bergen. Masalan: Muso alayhissalomning hassalari ajdarga aylanib u zotning haqiqiy payg'ambar ekanliklarini tasdiqlagan bo'lsa, Iso alayhissalomga og'ir kasallarni bir nafasda tuzatish, murdalarni tiriltirish kabi mo'jizalar berilgan. Payg'ambarlarning ulug'i, oxirgi zamon payg'ambari Muhammad Mustafo salollohu alayhi va sallamga o'tgan payg'ambarlarga berilgan mo'jizalarning deyarli barchasi va yana o'zlariga ham alohida mo'jizalar berilgan. O'sha mo'jizalarning eng ulug'i, to qiyomatgacha boqiy turadigan Qur'oni karimdir. Mo'jizadan farqli ravishda karomat "izzat-ikrom", "qadr-qimmat", "oliyjanoblik" kabi ma'nolarni bildiradi. Istilohda esa, "Alloh taoloning o'zi sevgan bandalariga qilgan izzat-ikromi karomat deyiladi". Valiy lug'atda "yaqin", "do'st" kabi ma'nolarni bildirib, ko'plikda "avliyo"deyiladi. Demak, valiylar ollohnинг yaqin do'stlari, shuning uchun ham ularda inson ishonishi qiyin bo'lган g'ayri oddiy xususiyatlar zohir bo'lishi, ya'ni karomat hosil qilishi tangrining do'stlariga bergen inoyati ekan. Bunday karomatlarning ham bir-biridan farq qiladigan turi mavjud deyiladi. "Karomat ikki xil bo'ladi:

1. Jibilli (tug'ma, tabiiy)
2. Kasbiy (erishiladigan, mehnat bilan topiladigan)

Jibilli karomatga dalil; Alloh taolo al-Isro surasining 70-oyatida shunday xabar bergen; "Darhaqiqat, biz Odam bolalarini aziz — mukarram qildik va ularni barru-bahrda – quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qo'ydik, hamda ularga halol pok narsalardan rizq-u ro'z berdik va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal, ustun qilib qo'ydik. Masalan, Kasbiy karomatga dalil; Alloh taolo Hujurot surasining 13-oyatida quyidagicha xabar bergen; "Albatta sizlarning Alloh nazdidagi eng hurmatlirog'ingiz, taqvodorrog'ingizdir". Karomat esa faqat taqvodor mo'minlarda hosil bo'ladi (chunki ular bu karomatni mo'minlarga xos e'tiqod va harakatlar bilan topadilar). Yana bir boshqa manbalarda esa karomatni kavniy va ilmiy kabi turlaydilar.

Karomati kavniy: qisqa fursatlarda ro'y beradigan favqulodda g'ayritabiiy hodisalar, masalan, havoda uchish, suv ustida yurish, uzoq yo'lni bir fursatda bosib o'tish kabi. Karomati ilmiy: ilm, irfon, ma'rifat, ibodat va taqvo, ma'naviy kamolot orqali yuzaga kelgan turli shakllardagi g'ayritabiiy hodisalar. Bunga esa bir qator tasavvuf shayxlarida zohir bo'lган karomatlarni aytish mumkin. Karomatning g'ayri oddiy ishlarga nisbatan qo'llanishi esa majoziyidir. Zero, Alloh taolo ana shunday g'ayri oddiy ishlarni taqvodor mo'min uchun izzat-ikrom sifatida zohir qiladi. "Nasoyim ul-muhabbat"da keltirilgan har bir valiyni o'ziga xos-xususiyatlari, berilgan karomatlari bilan ta'rif beradi. Bunda har bir valiyning karomati, valiy ekanligining belgisi bo'lib ko'rindi. A.Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da valiy larning karomatiga dalil qiluvchi hikoyat va rivoyatlar keltiradi. Masalan, Habib Ajamiy haqida quyidagi hikoya keltiriladi: Qotillikda ayblangan bir kishini dorga osayotgan edilar. Habib o'tayotgan chog'da unga ko'zi tushdi. Kechasi tushda dorga osilgan qotilni jannatda ko'rdilar.

So'radilar:

-Sen ul qilmishing bilan bu martabaga nechuk erishding?

Dedi: -Meni qatl etayotgan chog'da Habib Ajamiy o'tib borayotgan edi. nazari menga tushibdi. Bu darajaga uning bir nafasi barakatidan yetishdim. Hikoyaning mazmuni ham valiyning karomatiga dalil bo'ladi.

Yana aytildikи, valiy larning avval ishlari tavbadir. Undan keyin, shariat riyoti, yana birи zakot, birи saloti xamsa, yana birи ro'za, tariqat odobi, hilm va burdbog'lik, rizo, sabr, sidq, azim riyozat. Navoiy valoyatni ta'rif etar ekan, valiy lar haqidagi ilk tasavvurlarga to'xtalib o'tadilar. Avvalida Hakim at-Tirmiziyning "Xatm ul-avliyo" asari turadi. Asarda Hakim at-Tirmiziy o'zi haqda shunday keltiradi: "Menga nisbat berishlarini o'ylab biror harf yozmadim. Faqatgina yuragim siqlgan, ishlarim yurushmagan kezlari tasallli topish uchun yozar edim, kimki, bandalik sifatlarini bilmasa, Haq sifatlarini bilmaydigan nodonroqdir." "Nasoyim ul-muhabbat" da bu ulug' ustoz ko'p hadisi va karomati bor deb keltirilgan. A.Jomiyning "Nafahot ul-uns min-hazorot il-quds" asari, F.Attorning "Tazkirat-ul avliyo" asarini keltiradi. Ushbu asarlarda Mo'jiza, karomat tushunchalari va ularni payg'ambar va valiy larda zohir bo'lishi aytilgan.

**Xulosa.** Karomat valiy, avliyolarga berilgan ollohning inoyati. Payg'ambarlarga ularning payg'ambarliklarini tasdiqlash uchun berilgan odatdan tashqari, o'zgalarni ojiz qoldiruvchi ish – mo'jiza deyiladi. Alloh taoloning o'z do'stlariga qilgan izzat-ikromi – karomat deyiladi. Anglashiladiki, karomat allohning taqvo va ibodatda qoim bo'lgan, o'zini dunyoning o'tkinchi havas va nafslaridan yiroq tutgan, ruhiy va ma'naviy kamolotga erishgan yaqin do'stlariga yuborgan ehsoni. Karomat ato etilgan ollohning do'sti esa shubhasiz, valoyatga erishgan valiydir. Demak, valoyat tushunchasining aqidaviy jihatlari adabiyotlarda atroflicha o'rganilgan bo'lib, keltirilgan fikrlar dalillar bilan asoslab berilgan. Badiiy adabiyotlarda ham valiy lar obrazi badiiy talqin qilingan va tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

#### Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Palvanov U. "Sa'duddin Taftazoniy va uning "Sharh al-aqoid an-Nasafiya" asari", "Toshkent Islom universiteti" nashriyot –matbaa birlashmasi. T-2015. 63-64 b.
2. Nasafiy A.M. "Tabsiratul adilla", 3-jild Mavarounnah T-2018.
3. Muhammad S.M.Y "Aqidatut tahoviya sharhining talhiysi" hilol nashr.T-2021.359 b.
4. Navoiy A. to'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 10-jild. T-2013.
5. Rahmatulloh.R. "Masnaviyi ma'naviy" 1- kitob 3-4-juz. Hilol nashr. T-2021.
6. Sirojiddinov Sh. Davlatov O. Yusupova D. "Navoiyshunoslik" Tamaddun. T-2019

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 1 (4) – 2024**

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).